



## HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLIH: YANGI PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR

FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

**N.A.Abdumannatova**

*SamDU doktoranti*

### HOTAMITOIY OBRAZINING O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI BADIYATIDA TUTGAN O'RNI

*Annatsiya. Maqolada saxiylik timsoli bo'lgan Hotamitoy obrazi va uning o'zbek adabiyoti badiyatida tutgan o'rni haqida fikr yuritiladi. Hotamitoy obrazi talmeh sifatida keltirilgan asarlar tahlilga tortilgan.*

*Kalit so'zlar: Hotamitoy, saxiylik, Abulfaraj Isfaxoniyning "Kitob al-ag'aniy" asari, "Guliston bit turkiy", saxovatli hukmdor g'oyasi.*

*O'zbek mumtoz adabiyotida Hotamitoy nomi bot-bot tilga olinadi. Ijodkorlar o'z asarlarida bu nomni keltirar ekanlar o'zlarining saxovat haqidagi orzu-o'ylarini, istaklarini aks ettirishni maqsad qilganlar. Buni biz o'zbek mumtoz adabiyoti namoyondasi Sayfi Saroiyning "Guliston bit turkiy" asari badiyatida ham ko'rishimiz mumkin. U tarjima asar bo'lib, Sa'diyning "Guliston" asarining asosiy mag'zini olib, uni zamona ruhini va mahalliy muhitni aks ettiruvchi yangi hikoyatlar, qit'a va baytlar bilan to'ldirgan. Asar 8 bobdan iborat bo'lib, har bir bobda hikoyatlar keltirilgan. Hikoyatlarning ko'pchiligi didaktik mazmun-mohiyat kasb etadi. Shoir pand-nasihat qilish yo'li bilan adolat va osoyishtalik o'rnatish, zolim podsho va amaldorlarni insof va adolatga chaqirish, davlatni qat'iy qonun-qoidalar asosida boshqarish orqali kishilar xulq-atvorini yaxshilash mumkin deb hisoblaydi. Shu maqsadda to'g'rilik, rostg'ylik, sadoqat va marhamat, saxiylik, adolat kabi fazilatlarni targ'ib etadi. Undan zamona hukmdori Tayxosbek madhi ham o'rin olgan.*

*Misr ichinda bor bir orif-u amir,*



*Eyguliklar dam badam elga ishi.  
Lutf-u axloqu karam konidurur,  
eygu oti doimo tilda yurur.  
Bu guliston ziynati Tayxosbek,  
Hojibul-hujjob sultana xos bek.  
Ey malak surat, malik nusrat ayon,  
Jud ichinda Hotami Toyi zamon.*

Muallif zamona hukmdorining ezgu ishlarini ulug'lar ekan, uning go'zal axloqiy fazilatlari tufayli ezgu oti doimo tillardan tushmasligini yozadi. Saxovatda uni Hotamitoymga tenglashtiradi. Demak, Hotamitoym nomi barcha davrlarda ham saxiylikning yorqin namunasi bo'lib kelgan. Bu obrazning Alisher Navoiy ijodida ham keng ko'lamda aks etganligini kuzatishimiz mumkin. Saxovat va himmat Navoiy ijodining yetakchi g'oyalaridan biridir. Mutafakkir o'zining "Mahbub ul- qulub", "Lison ut-tayr" kabi asarlarida saxiylikning yuksak fazilat ekanligini bayon etadi. "Xamsa" tarkibidagi "Hayrat ul abror" dostonining beshinchi maqolotida saxiylik haqidagi qimmatli fikrlar keltirilgan bo'lib, Navoiy o'z fikrlarini Hotami Toy haqidagi hikoyat bilan mustahkamlaydi. Mazkur hikoyating sujeti Hotami Toy va o'tinchi chol o'rtasidagi suhbat aks etgan lavhadan iborat. Unga ko'ra, kishilardan biri Hotamdan: "O'zingdan ko'ra saxiyroq kishini ko'rdingmi?" – deya savol beradi. Shunda Hotam bir kuni butun shahar ahliga ziyohat berayotgan chog'da sahroda bir o'tinchini ko'rganini, nega Hotamning ziyofatga bormaganligini so'rganida quyidagicha javob olganligini aytadi:

*"K-ey solibon hirs oyog'ig'a band,  
Ozu ta'ma bo'ynig'a bog'lab kamand.  
Vodiyi g'aratqa qadam urmag'on,  
Kunguru himmatqa alam urmag'on.  
Sen dog'i chekkil bu tikan mehnatin,  
Tortmag'il Hotami Toy minnatin.  
Bir diram olmoq chekibon dast ranj  
Yaxshiroq andinki, birov bersa ganj."  
Hotami Toy o'z so'zini quyidagicha yakunlaydi:  
Ulki bu yanglig' so'zi mavzun edi,  
Mendin aning himmati afzun edi.<sup>1</sup>*

Alisher Navoiy bu hikoyatni keltirish orqali saxiylikni ulug'lab, o'z-o'ziga qarata, "Ey Navoiy, agar sen himmatli bo'lsang, Hotami Toy ham senga qul bo'ladi, ey soqiy, karam izhor qilib bir qadah tut, xayru-ehson nimaligini Hotamga ko'rsatib qo'y, bizdan yetishmovchilik bo'lsa, sendan karam bo'lsin", - deya fikrini yakunlaydi.

Bu hikoyatning manbalaridan biri Shayx Sa'diyning "Bo'ston" asari bo'lib, u quyidagi bayt bilan xulosalanadi:

*O'z mehnatidan non yegan kishi,  
Hotam minnatidan ozod yoz-qishi.*

<sup>1</sup> Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. – B. 258.



*Hotami Toy obrazi aks etgan hikoyat Haydar Xorazmiyning "Gulshan ul asror" asari tarkibida ham mavjud. Haydar Xorazmiy Nizomiy Ganjaviyning "Mahzan ul-asror" asariga "Gulshan ul-asror" nomi bilan turkiy tilda javob yozib, uni Sulton Iskandarga bag'ishlagan. Asar Nizomiynikidan farq qilib, avval hikoya, so'ng shu hikoyadan kelib chiqadigan xulosa va fikrlarni umumlashtiruvchi bob bilan ta'minlangan. Haydar Xorazmiy bu asari bilan o'zbek adabiyotida she'riy hikoyani rivojlantirgan. Ko'pchilik hikoyalarida olijanob insoniy fazilatlar targ'ib qilingan, mehnat va mehnat ahli ulug'langan. Dostonda markazlashgan davlat va odil hukmdor g'oyasi ilgari surilgan. Axloq-odob, mehnatsevarlik, saxiylik, rostgo'ylik targ'ib etilgan.*

*"Gulshan ul-asror" o'zbek epik she'riyati tarixida muhim hodisa va turkiy tildagi axloqiy-falsafiy dostonchilikning yirik namunasi hisoblanadi. Muallif saxovat haqida fikr yuritar ekan, saxiylik barcha ayblarni yopishini, baxillik esa insonlarni it kabi xorlikka duchor qilishini ta'kidlaydi. Unda Hotami Toy bilan bog'liq quyidagi hikoyat keltiriladi:*

*Qofilai bir arabdin magar,  
Qildi bani Toy hashamina guzar.  
Yo'l oziqib otkali qo'rqushdilar,  
Hotami Toy turbatina tushdilar.  
Qofilaning o'rtasidin bir fuzul,  
Dedi: - kimey Hotami sohib qabul.  
Dunyoda nomus ila qilding maosh,  
Yaxshi oting karam birla bo'ldi fosh.  
Chun sanga mehmonbiz ey sohib karam,  
Har nechuk et, bizni og'irla bu dam.  
So'zladi-yu turbatina tikdi ko'z,  
Rost hanuz og'zinda edi bu so'z.  
Kim tevalarindan semizroq biri,  
Bo'ldi saqat ko'rgin eranlar siri.  
Bo'ldi yigit so'zlaganidin xijil,  
Qo'p tegura boshladi Hotamga til.<sup>2</sup>*

*Shunday qilib shu kecha karvon ahli tuya go'shtidan tanavvul qilishdi. Subhi sahar vaqtida uzoqdan bir otliqni ko'rdilar. U o'zi bilan birga so'yilgan tuyadan farq qilmaydigan bir tuyani yetaklab kelayotgan edi. Qofila xalqi u otliqdan kelmog'ining sababini so'radi. Otliq javob berdi:*

*Dedikim: - ushbu kecha Hotam o'zi,  
Kirdi tushimizga yosharib ko'zi.  
Bizga xabar berdiki bir mehmon,  
Keldi-yu, mandin tiladi bazla xon.  
Bir teva burch oldim alardin dedi,  
Ul tevaning belgularin so'zladi.  
Bizni oshiqurdiki, ham dar zamon,  
Tong boshida ko'chqusidir karvon.*

<sup>2</sup> Haydar Xorazmiy. Gulshan ul -asror. ziyo uz com.



*Hech nimaga boqmay itikroq surung,  
Ul tevasining o'zina yetkurung.  
Ko'rdi egin ul teva uchun malol,  
Uzr qo'ling kim manga qilsun halol.*

*Hotami Toy nomi bilan bog'liq mazkur hikoyaning asl manbasi islom davri namoyondalaridan bir Abulfaraj Isfaxoniyning "Kitob al-Ag'oni" asaridir. Hotami Toy va uning qabri atrofida sodir bo'lgan sujetni badiiy adabiyotga birinchi bo'lib olib kirgan ijodkor Sa'diy Sheroziy hisoblanadi. Bizningcha, Haydar Xorazmiy Sa'diydan ta'sirlanib yozgan bo'lishi mumkin. Chunki har ikkala asarda ham tuyani yetaklab kelgan kishining ismi aytilmagan. Abulfaraj Isfahoniyning "Kitob al-Ag'oni" asarida esa tuyani olib kelgan kishi Hotamning o'gli Adiy ibn Hotam edi deyiladi. Nima bo'lganda ham, bu asarlarning umumiy sujeti bir xil. Ularda Hotami Toy nomi sharaflangan.*

*Shuningdek, mumtoz adabiyotimiz badiyatida Hotami Toy nomini Xorazm tarixnavisligining yirik namoyondalaridan biri Muhammad Yusuf Bayoniyning hamda Ogahiyning asarlarida uchratamiz. Xorazm va O'rta Osiyo xalqlari tarixini o'rganishda juda nodir manba bo'lgan "Shajarayi Xorazmshohiy" asarida Ogahiyning Muhammad Rahimxonga bag'ishlab yozilgan bir qasidasida Hotami Toy nomini tilga olinadi. Qasidada saltanat komol topishi uchun qanday ishlar amalga oshirilmog'i kerak, qanday siyosat yurgizish ma'qulligi haqida batafsil fikr yuritilgan. Unda Muhammad Rahimxon adolatda No'shiravonga, saxovatlilikda Hotami Toyga qiyoslanadi:*

*Erur ismi shohi Muhammad Rahim,  
Bahodir abulfathi sohibqiron.  
Raiyat zamonida emin bo'lub,  
Erur barcha lutfidin shodmon.  
Hamono iki ilkidur bahri kon.  
Saxovatda andog'ki, Hotamdurur,  
Adolatda andog'ki, No'shiravon.<sup>3</sup>*

*Bu qasidada Muhammad Rahimxonni ham adolatli hukmdor bo'lganligi, uning hukmdorligi davrida oddiy xalq erkin yashashi, hukmdorning lutfidan hamma bahramand bo'lganligi qayd etiladi. Eng asosiysi, u karam va saxovatda Hotami Toyga, adolati esa No'shiravonga qiyoslanadi.*

*Hotami Toy nomi ulug'langan yana bir asar Ogahiy va Munis qalamiga mansub "Firdavs ul-iqbol" asaridir. Unda Xorazm tarixi bilan bir qatorda bu zaminda hukmronlik qilgan hukmdorlar to'g'risida ham ma'lumotlar mavjud. Shunday hukmdorlardan Eltuzar Muhammad Bahodirxon haqida fikr yuritilib, uning saxovati madh etiladi. Bu o'rinda muallif mubolag'ali tasvir usulidan foydalanadi:*

*Kafi judi andoq sohib siymu-zar,  
Ki ul nav yerga sochilmay matar .  
Chekib Hotam ollida sharmandaliq,*

<sup>3</sup> *Муҳаммад Юсуф Баёний. Шажарайи Хоразмшоҳий. –Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат наشريёти, 1994. 18-б.*

*Tanin tufroq etmish sarafkandaliq.*

*“Uning himmatli kafti shu qadar siym-u zar sochar ediki, ko’kdan yog’adigan yomg’ir ham bu qadar mo’l bo’lmaydi, u shunday saxovatli zotki, biror bir faqir uning dargohidan mahrum qaytmagan”, - deya Eluzarxonning sahovatini Hotami Toydan ustun qo’yadi.*

*O’zbek adabiyoti badiyatida Hotami Toy obrazi haqida so’z borar ekan, ko’pgina yozuvchilar bu obrazni turli asarlarda ta’rif-tavsif etilganligi ayon bo’lmoqda. Jumladan, “noma” janrida yaratilgan asarlarda ham Hotami Toy obrazi salmoqli o’rin egallaganligining guvohi bo’lish mumkin. Bu an’anani Xorazmiy o’zining “Muhabbatnoma”sida boshlab bergan bo’lsa, keyinchalik Sayyid Qosimiy, Xo’jandiy kabi ijodkorlar uni munosib davom ettirganlar. Sayyid Qosimiyning “Sadoqatnoma” asarida Hotami Toy obrazi bir qator tarixiy va afsonaviy obrazlar bilan birga qo’llanilib, insonni hayotning o’tkinchi hoyu-havaslariga aldanib qolmaslikka chaqiradi.*

*Iskandar yetmadi obi hayota*

*Xizr fe’li kerak ushbu sifota.*

*Qani Kayxisrav-u Zahhoku Jamshid,*

*Jahondin bordilar borisi navmid.<sup>4</sup>*

*Bu o’rinda muallif Iskandarning obi hayot suvini topib ichmoqchi bo’lganini, ammo abadiylik suvi Xizr alayhisalomga nasib etganligi to’g’risidagi afsonaga ishora qilmoqda. Ya’ni Iskandar shuncha boylikka ega bo’lsa-da, taqdiri azal oldida ojiz ekanligi, uning boyliklari bu dunyoda abadiy qolishiga yordam bermaganligi ta’kidlamogda. Shuningdek, Eron mifologiyasidagi afsonaviy pahlavon Kayxisrav-u, Jamshid va Zahhoklar ham qanchalik qudratli bo’lmasin, bu dunyoni tark etganligi haqida fikr yuritiladi. Muallif keyingi o’rinlarda o’quvchining diqqatini saxiylik timsoli Hotami Toy va adolatparvar shoh No’shiravon obrazlariga qaratadi:*

*Nazar qil Hotam-u No’shiravona,*

*Jahondin qildilar oxir karona.*

*Said Qosimiy bu obrazlarni qo’llash orqali barcha odamlar bu dunyoni tark etadi, faqat insondan qoladigan yaxshi nomgina abadiylikka daxldordir degan xulosani ifodalashni maqsad qilgan. Aynan ana shu fikrlar adibning “Haqiqatnoma” asarining ham bosh g’oyasi hisoblanadi. Unda ibrat uchun keltirilgan quyidagi hikoyatda boshqa asarlardan farqli o’laroq Hotami Toyning shijoatlilik fazilatiga urg’u berilgan.*

*Bir otliq hech kimni nazar pisand qilmay saltanatni egallash umidi bilan yo’lga chiqdi.*

*Ko’ziga ilmay Zahhok-u Kayni,*

*Teng etmay, bir javiga Judi Tayni.<sup>5</sup>*

*U shu darajada kibrga berilgan ediki, Zahhok-u Kayxusravlarning kuchini ham, Hotami Toyning shijoatini ham ko’zga ilmas edi. Bu o’rinda muallif qofiya talabi bilan Hotami Toy nomini qisqartirgan holda “Tay” shaklida keltirgan. Shuningdek,*

<sup>4</sup> Саййид Қосимий. Садоқатнома. [www.ziyocom](http://www.ziyocom).

<sup>5</sup> Саййид Қосимий. Ҳақиқатнома. [www.ziyocom](http://www.ziyocom).



*shijoatlilik ma'nosini anglatuvchi "jud" so'zini yonma-yon qo'llash orqali saxiylik va shijoatlilik timsoli Hotami Toy nazarda tutilayotganligiga ishora qilgan.*

*Shunda qilib, haligi otligining oti ag'darilib, o'zi yerga yiqildi-yu, shu zahoti jon berdi. Boyagina mag'rur yo'l bosayotgan bu kimsadan ko'z ochib yumguncha nom-nishon ham qolmadi. Kibr insonlarni falokatga boshlovchi illat ekanligini ta'kidlash uchun keltirilgan ushbu hikoyatni xulosalash uchun Sayyid Qosimiy yana afsonaviy obrazlarga murojaat qiladi:*

*Sulaymon qo'ydi taxti xotamini,*

*Sikandar oldi mulki olamini.*

*Qani Afrosiyobu hashmati Kay,*

*Qani No'shiravon-u, Hotami Tay.*

*Bunda Sayyid Qosimiy bir qator afsonaviy obrazlarni: Hotami Toy, Sulaymon, Iskandar, Afrosiyob, Kayxusrav, No'shiravoni odil obrazlarini yonma-yon qo'llash orqali asar g'oyasining ta'sirchanligini oshirishga erishgan.*

*XIV asrning ikkinchi yarmi, XV asrning birinchi choragida yashab ijod etgan ijodkor Xo'jandiyning "Latofatnoma" asarida ham Hotami Toy obrazi keltirilgan.*

*Ayo faxri salotun shohi davron,*

*Zamona maxfari Mahmud Tarxon.*

*Saxovat bobida chun Hotami Tay,*

*Shijoat mulkida chun Kovus-u Kay.<sup>6</sup>*

*Xo'jandiy hukmdor Mahmud Tarxonni zamonasining faxirli shohlaridan biri ekanligini madh etar ekan, uni saxovat bobida Hotami Toyga qiyoslaydi.*

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Hotami Toy obrazi o'zbek adabiyotida salmoqli o'ringa ega bo'lgan an'anaviy obrazlar qatoriga kiradi. Haydar Xorazmiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, kabi ijodkorlar asarlarida Hotami Toyning hayoti bilan bog'liq rivoyatlar keltirilgan bo'lsa, Said Qosimiy, Xo'jandiy, Muhammad Yusuf Bayoniy, Ogahiy, Munis, kabi ijodkorlarning asarlarida talmeh san'ati vositasida Hotami Toy bilan bo'g'liq mubolag'ali tasvir usulidan foydalanilganligining guvohi bo'lish mumkin. Bu obraz asosan, lirik asarlarda saxiylikni targ'ib qilish bilan birgalikda zamona hukmdorini ulug'lash, uni saxovatpeshalikda Hotami Toyga mengzash maqsadida qo'llanilganligi aniqlandi. Hotami Toy obrazini mumtoz adabiyot badiyatida Iskandar, Doro, Faridun, Jamshid, Afrosiyob, Rustami doston, ayniqsa, No'shiravoni odil kabi buyuk va afsonaviy obrazlar bilan yon-yon tasvirlanganligining guvohi bo'ldik.

### Adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. –258 b.

2. Haydar Xorazmiy. Gulshan ul –asror. ziyo uz com.

3. Хўжандий. Латофатнома. [www.ziyo.com](http://www.ziyo.com).

4. Кошифий Хусаин Воиз. Ахлоқи Муҳсиний // нашрга тайёрловчилар: М.Аминов Ф. Хасанов. –Тошкент: Ўзбекистон илмий нашриёти, 2011. – 376 б.

<sup>6</sup> Хўжандий. Латофатнома. [www.ziyo.com](http://www.ziyo.com).



5. Лапасов Ж. Мумтоз адабий асарлар учун ўқув луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994.
6. Қосимов Б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. –Тошкент: Маънавият, 2004. – 450 б.
7. Muhammad Avfiy. Nodir hikoyatlar. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2011. – 175 b.
8. Муҳаммад Юсуф Баёний. Шажарайи Хоразмшоҳий. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. – 103 б.
9. Низомулмулк. Сиёсатнома (Сияр ул мулук). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2008. 239 б.
10. Сайфи Саройй. Шеърлар. Гулистон. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1968. – 256 б.